

JALB ETILGAN MABLAG'LAR XUSUSIYATLARI VA INVESTITSIYA FAOLIYATINI MOLIYALASHTIRISHDAGI AHAMIYATI

Butayev Javlonbek Inatillo o'g'li

Toshkent moliya instituti tayanch doktoranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8026467>

Jahon tajribasining ko'rsatishicha, keng miqyosda iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish turli sohalaridagi investitsiya loyihalarini amaliyotga samarali tarzda tatbiq etish bilan birga kechar ekan. Amalga oshirilayotgan investitsiya loyihalarining hajmi va miqdoriga qarab iqtisodiyotda yuz berayotgan o'zgarishlar va siljishlar haqida xulosalar chiqarish mumkin.


Bozor iqtisodiyoti sharoitida investitsion loyihalarni moliyalashtirish investorlar tomonidan tashkil etilgan har xil manbalar, shu jumladan o'z mablag'lari, moliyaviy resurslarni jalb qilish yo'li bilan, kreditlar evaziga qonunchilikda belgilangan holda qimmatli qog'ozlar chiqarish hisobiga amalga oshiriladi.

Umumiy hisobga olganda, investitsion loyihalarni moliyalashtirish manbalari quyidagilarga bo'linadi:

1. Investorning o'z moliyaviy resurslari va ichki xo'jalik rezervlari (foyda, amortizatsiya ajratmalari, maxsus zahira fondlari);
2. Investorning qarz mablag'lari (bank krediti, byudjet krediti, obligatsiya bo'yicha qarzar);
3. Jalb qilingan moliyaviy resurslar (aksiyalarni sotish, mehnat jamoasining pay va boshqa ko'rinishdagi badallari, yuridik va jismoniy shaxslarning pay va boshqa badallari);
4. Byudjetdan investitsion assignatsiyalari (mahalliy, davlat va budjetdan tashqari fondlar mablag'lari);
5. Boshqa manbalar.

Ushbu moliyalashtirish shakllari va manbalarining har biri o'zining ijtimoiy- siyosiy va iqtisodiy jihatlariga ega, shu sababli investitsion loyihalarni moliyalashtirish shakllarini tahlil qilib eng qulay shakl va usul tanlanadi.

Agar korxona investitsiya faoliyatini moliyalashtirishda o'z mablag'lari yetarli bo'lmasa, bunday holda, korxona mablag'larni qimmatli qog'ozlar chiqarish yoki bank krediti orqali jalb qilishi mumkin. Investitsion loyihalarni moliyalashtirishning keng tarqalgan va moliyalashtirishning asosiy manbalaridan bo'lib, qimmatli qog'ozlarni emissiya qilish hisoblanadi (1-rasm).



1-rasm. Investitsiya loyihalarining moliyalashtirish manbalari¹

Hozirgi iqtisodiy sharoitda jalb etilgan mablag'lar hisobiga investitsiya faoliyatini moliyalashtirish, asosan, qimmatli qog'ozlar chiqarish, xorijiy investitsiyalar, yuridik va jismoniy shaxslarning pay va boshqa badallarini jalb qilish hisobiga amalga oshirilmoqda.

Investitsiyalash jarayonida turlicha vositalar qo'llanilishi mumkin: pul, valuta, kredit, qimmatli qog'ozlar, mulk (moddiy va nomoddiy), turli tovar, xomashyolar va h.k. Bular ichida qimmatli qog'ozlarga investitsiya qilish investorning talablarini qondirishning eng samarali va keng tarqalgan yo'llaridan biri hisoblanadi.

Qimmatli qog'ozlar bozori, bir tomondan, iqtisodiyotning xo'jalik subyektlari uchun moliyaviy ta'minlanish manbayi bo'lsa, ikkinchi tomondan, aholi va xo'jalik subyektlarining bo'sh turgan mablag'larini iqtisodiyotga faol jalb etuvchi, pul mablag'larini qayta taqsimlovchi mexanizmdir. Bozor iqtisodiyoti sharoitida iqtisodiyotning yangidan vujudga kelayotgan va faoliyat yuritayotgan tarmoqlarini rivojlantirish uchun turli shakldagi va hajmdagi investitsiyalar kerak bo'ladi. Zamonaviy bozor iqtisodiyotida qimmatli qog'ozlar bozori - iqtisodiy munosabatlar ishtirokchilari o'rtasida pul vositalarini samarali qayta taqsimlovchi mexanizm vazifasini bajarmoqda.

Investitsiya resurslarini moliya bozori imkoniyatlaridan foydalangan holda foyda olish uchun yo'naltirish investorlarning eng asosiy maqsadli vazifasi hisoblanadi. Uning boshqa vazifasi - o'zining investitsiya faoliyati jarayonida investitsiyalarining daromadlilikini oshirib borish va risklilik darajasini pasaytirishdir. Bunda moliya bozori investorning vazifalarini va investitsiya siyosatini samarali amalga oshirishida, yetarli darajada rivojlangan bo'lishida katta rol o'ynaydi va muhim funksiyani bajaradi. Jahon amaliyotining ko'rsatishicha, xo'jalik subyektlarining innovatsion taraqqiyotini moliyalashtirish manbalari tuzilmasida markaziy o'rinni qimmatli qog'ozlar bozorining dastaklari egallaydi. Qimmatli qog'ozlar vositasida investitsiyaviy moliyalashtirish investorlar mablag'larining muomaladagi qimmatli

¹ Nazariy ma'lumotlarni umumlashtirish natijasida muallif tomonidan tuzilgan.

qog'ozlarga sarflanishini anglatadi hamda qimmatli qog'ozlar bozorida ochiq va erkin faoliyatini tavsif etadi.

References:

1. Mirziyoyev Sh.M. Fond bozorini rivojlantirish masalalariga bag'ishlangan yig'ilish bayonoti. 2019-yil 7-oktabr.
2. Y.Tsutsui. Do international investors cause stock market spillovers? Comparing responses of cross-listed stocks between accessible and inaccessible market. Economic Modelling, Volume 69, January 2018, Pages 237-248.
3. Butaev J., Ochilov B. The role of the investment environment in attracting foreign investment //ASIAN JOURNAL OF MULTIDIMENSIONAL RESEARCH. – 2021. – T. 10. – №. 5. – C. 687-697.
4. G'ozibekov D.G'. Investitsiyalarni moliyalashtirish masalalari. – T.: "Moliya", 2003. – 332 b.